

## PSIXOLOGIK MASLAHATDA ETIK VA AXLOQIY ME'YORLARNI BUZISHNING AYRIM OQIBATLARI.

*Egamberdiyev Jamol Berdimurodovich-assistent o'qituvchi*

*Shahrisabz DPI, Shahrisabz shahri*

*jamolegamberdiyev.com@gmail.com*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi Mallayeva Hilola*

**Annotatsiya:** Psixologik maslahat insonlarning ruhiy salomatligini yaxshilash va turli muammolarni yengishda yordam beruvchi sohadir. Ammo bu jarayonning muvaffaqiyati, asosan, psixologning etik va axloqiy me'yorlarga rioya qilishiga bog'liq. Mutaxassisning etik va axloqiy normalarga amal qilmasligi mijozga psixologik zarar yetkazishi, ishonchni yo'qotishi va psixologik maslahat samaradorligini kamaytirishi mumkin. Ushbu maqolada psixologik maslahatda axloqiy me'yorlarni buzish oqibatlari hamda ushbu masalani ilmiy asosda o'rgangan ikki olimning ishlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zi:** etik va axloqiy me'yorlar, psixologik maslahat, ishonchning yo'qolishi, axloqiy normalar, me'yorlarni buzishning oqibatlari.

**Абстрактный:** Психологическое консультирование – это область, которая помогает людям улучшить свое психическое здоровье и преодолеть различные проблемы. Но успех этого процесса во многом зависит от соблюдения психологом этических и моральных норм. Нарушение этических норм может нанести вред пациенту, потерять доверие и снизить эффективность психологического консультирования. В данной статье рассматриваются последствия нарушения этических норм в психологическом консультировании и работа двух ученых, изучавших этот вопрос на научной основе.

**Ключевые слова:** этико-моральные нормы, психологическое консультирование, утрата доверия, моральные нормы, последствия нарушения норм.

**Abstract:** Psychological counseling is a field that helps people improve their mental health and overcome various problems. However, the success of this process largely depends on the psychologist's adherence to ethical and moral standards. Violation of ethical standards can harm the patient, lose trust, and reduce the effectiveness of psychological counseling. This article examines the consequences of violating ethical standards in psychological counseling and the work of two scientists who have studied this issue on a scientific basis.

**Keywords:** ethical and moral standards, psychological counseling, loss of trust, moral standards, consequences of violating standards.

Psixologning kasbiy ish faoliyatining ajralmas va muhim jihatni bu-psixodiagnostika qilish sanaladi. Bunday faoliyatda psixolog shaxsining ma'naviy axloqiy tomoniga katta e'tibor beriladi. "Axloq" va "ma'naviyat" tushunchalari shunday meyor va prinsiplami o'z ichiga oladiki, ular shaxslarning o'zaro va jamiyat o'rtasida qiziqishlarini tartibga solish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu meyorlar insonlaming yaxshilik va yomonlik tushunchalariga mos ravishda xulqlarini tartibga solishga yo'naltirilgan va shaxsiy fikr, urf-odatlar, tarbiya, jamiyat fikri bilan qo'llab quvvatlanadi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu tushunchalar shaxsning kasbiy ish faoliyatida o'zini tutishi va fikrini tartibga solib turadi. Shaxsiy prinsiplar u yoki bu kasbning ma'lum sharoiti va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi va asosan mutaxassislarga nisbatan axloqiy kodeks talablar bilan ifodalanadi.

Psixologning kasbiy etikasi uning kasbdoshlari bilan, ilmiy jamiyat bilan o'zaro aloqasi, shuningdek, tekshirayotgan shaxslar, respondentlar (psixologik yordam so'rab kelgan) bilan o'zaro munosabatlarida ko'rindi.

Psixolog har qanday insonga nisbatan boshqacha qarashga yo'l qo'ya olmaydi. Har qanday sharoitda ham obyektiv bo'lish, boshqalar fikri ta'siriga tushmasligi kerak. Tajriba olib borilayotgan insonning yuridik va jamoatdagi o'rni, boshqalarning unga nisbatan ijobiy yoki salbiy qarashlari psixolog fikriga ta'sir etmasligi lozim. Ish davomida olingan javoblar har doim ilmiy asoslangan, tekshirilgan va har tomonlama o'ylab ko'rilgan bo'lishi kerak.

Psixolog bilan quyuq shaxsiy aloqalar bo‘lish ehtimoli qoidalarga to‘g‘ri kelmaydi. Psixolog chetdan, hissiyotga berilmasdan mijozning muammolariga qarab, qaror qabul qiladi.

Psixolog tajriba qilinayotgan mijozni qarashlarini hurmat qilishi, u bilan aloqada rostgo‘y, haqqoniy bo‘lishi talab qilinadi. Psixolog bilan muloqot davomida mijoz unga nisbatan ishonch, moyillik, va qoniqish hissini sezishi kerak.

Amaliy psixolog va mijoz o‘rtasida tenglikka asoslangan muloqot amalga oshsa, bu ish jarayoni optimal olib borilayotganidan darak beradi Mijoz o‘zini psixologning to‘laqonli hamkoridek sezishi kerak. Amaliy psixolog mijozning harakatlariga nisbatan baholovchi gaplar aytishdan o‘zini tiyishi va unga keraksiz maslahatlar berishdan o‘zini qaytarishi kerak.

Axloqiy me’yorlarni buzishning asosiy oqibatlari ishonchning yo‘qolishi. Psixolog bilan mijoz o‘rtasidagi ishonch samarali natijaga erishishning poydevoridir. Etik qoidalarni buzgan psixolog mijoz ishonchini butunlay yo‘qotadi. Bu nafaqat muolajaning to‘xtashiga olib keladi, balki bemor kelajakda boshqa mutaxassislarga ham murojaat qilmay qo‘yishi mumkin. Psixologik maslahat davomida noto‘g‘ri yondashuvlar va axloqiy buzilishlar mijozda qo‘srimcha stress, xavotir yoki ruhiy salomatlik yomonlashuviga sabab bo‘ladi. Masalan, konsultatsiya jarayonida o‘zaro muloqot jarayonidagi shaxsiy hayotga aloqador sirlar saqlanmagan holatda mijoz o‘zini noqulay va o‘zaro aloqalarni buzilgan his qilishi mumkin. Huquqiy oqibatlari. Ko‘pgina davlatlarda psixologik amaliyot qonuniy ravishda tartibga solingan. Etik normalarni buzish, masalan, ma’lumotlarni oshkor qilish, mijoznini kamsitish yoki manfaatlardan foydalanish, psixolog mutaxassisni qonun oldidagi javobgarlikni yuzaga keltirishi mumkin. Karl Rojers insonparvar psixologiya asoschilaridan biri bo‘lib, psixologik maslahatda “mijoz markazli terapiya” usulini taklif qilgan. Rojersning fikricha, psixolog har doim mijozni tinglashda ishonch va hurmatga asoslanishi kerak degan g’oyani ilgari suradi. Uning ishlari shuni ko‘rsatadiki, axloqiy me’yorlarni buzgan psixologning ta’siri mijozning rivojlanishini to‘xtatishi mumkin. Rojers

mijoz bilan psixolog o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va ishonch bo‘lmasa konsultatsiya samarasiz bo‘lishini ta’kidlaydi. Asosiy ishlar: Rojersning “Inson bo‘lishga intilish” kitobida etik yondashuvlar va insonni hurmat qilish haqida keng mulohazalar keltirib o’tilgan.

“Mijoz markazli terapiya” modeli, bu yondashuv bemorga zarar yetkazmaslik va unga yordam berishni asosiy tamoyil sifatida qabul qiladi.

Zigmund Freyd va axloqiy cheklar. Psichoanaliz asoschisi Zigmund Freyd psixologik maslahatda terapevtlarning mijozlarga ta’sirini chuqr o‘rgangan. Uning ishlari psixolog va mijoz o‘rtasidagi o‘zaro chegaralarga e’tibor qaratadi. Freydning fikricha, mijoz bilan shaxsiy yoki tijoriy aloqaga kirishish axloqiy me’yorlarning buzilishidir va bu mijozning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Asosiy ishlar: Freydning “Psichoanaliz va etik muammolar” asarida terapevtik jarayonda axloqiy qoidalarni buzishning zararli oqibatlari tasvirlangan. Freyd mijozlar bilan munosabatlarning chegaralarini aniqlash kerakligini va terapevt o‘z shaxsiy manfaatlaridan voz kecha olishligini ta’kidlab o’tadi.

Shuni aytishimiz mumkinki psixolog psixologik maslahatda etik va axloqiy me’yorlarni buzishning oqibatlari asosida olimlar turli xil ishlarni olib borishgan . Bu olimlar psixologik maslahatda etik va axloqiy me’yorlarni buzishning oqibatlari haqida o‘z izlanishlarida yoritib berishgan.

### Xulosa

Psixologik maslahat jarayonida etik va axloqiy me’yorlarni buzish ko‘plab jiddiy oqibatlarga olib keladi. Bu nafaqat mijozga, balki mutaxassisning o‘ziga ham bir qancha kasbiy noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Karl Rojers va Zigmund Freyd kabi olimlarning ishlari ishonch, hurmat va axloqiy yondashuvning muhimligini ko‘rsatib beradi. Psixologlar o‘z amaliyotlarida ushbu me’yorlarga qat’iy rioya qilishi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. American Psychological Association (APA) Ethical Principles of Psychologists and Code of Conduct.

2. Z.T.Nishonova “Psixologik xizmat”, Toshkent “Yangiyo’l Poligraph service” 2007
3. Klimov E. T “Kasbiy o’zini-o’zi anglash psixologiyasi” Rossiya, 1996 y.
4. American Psychological Association, 2017. Bu hujjatda psixologlarning axloqiy qoidalari, mijoz bilan ishlashda maxfiylik, professional chegaralar va qonuniy mas’uliyatlar yoritilgan.
5. Corey, G., Corey, M. S., & Callanan, P. (2019). Issues and Ethics in the Helping Professions (10th ed.). Cengage Learning. Ushbu kitob yordam beruvchi kasblardagi etik masalalar va oqibatlar haqida bat afsil ma’lumot beradi.
6. [www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com) kutubxonasi.